

**FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI
FAYDALANISH AN'ANALARI**

Farg'ona davlat universiteti Ekologiya kafedrasida o'qituvchisi

Maxsudova Gulnoraxon

Ekologiya yo'nalishi talabalari

Qurolova Feruzaxon Rasul qizi

Boynazarova Mohinur Avazbek qizi

Anotatsiya: Ushbu maqola tabiat va jamiyat o'rtasidagi zaro munosabatlarini barqaror-lashtirish, yuzaga kelayotgan mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda mahalliy xalqlarning an'anaviy tabiatdan foydalanish madaniyatini o'rganuvchi etnoekologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va talab kundan kunga ortib bormoqdaligi haqida.

Abstract: This article is about the need and demand for ethno-ecological research that studies the culture of traditional nature use of local peoples in order to stabilize the interaction between nature and society, to solve emerging regional environmental problems.

Аннотация: В данной статье речь идет о необходимости и востребованности этноэкологических исследований, изучающих культуру традиционного природопользования местных народов с целью стабилизации взаимодействия природы и общества, решения возникающих региональных экологических проблем.

Kalit so'zlar: Etnoekologiya, antropogen, intensiv, BMT, Rio-de-Janeyro, Yohannesburg, Nyu-York, geodeziya, kartografiya, shohmoylar, urug' sepish, qo'sh oshi, qo'sh go'ja, xudoyi sho'rva, qozon to'ldi, is, landshaft, kompromiss, Yevropa landshaft konvensiyasi.

Key words: Ethnoecology, anthropogenic, intensive, United Nations, Rio de Janeiro, Johannesburg, New York, geodesy, cartography, anemones, sowing seeds, double soup, double soup, god's soup rva, the pot is full, is, landscape, compromise, European landscape convention.

Ключевые слова: Этноэкология, антропогенный, интенсив, ООН, Рио-де-Жанейро, Йоханнесбург, Нью-Йорк, геодезия, картография, анемоны, посев семян, двойной суп, двойной суп, божий суп рва, горшок полон, есть, ландшафт, компромисс, Европейская ландшафтная конвенция.

Kirish: Dunyoda aholi sonining ortishi va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy resurslardan foydalanish ko'lamini kengaytib, unga tushadigan antropogen bosim miqdori ortib bormoqda. Bu holat, aholi zichligi yuqori,

xo‘jalik tarmoqlari intensiv rivojlangan hududlarda ijtimoiy-ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday rayonlarda barqaror rivojlanishni ta‘minlash masalasi BMTning qator konferensiyalarida (Rio-de-Janeyro, 1992, Yoxannesburg, 2002, Nyu-York, 2015) insoniyatning yaqinlashib kelayotgan ijtimoiy-ekologik halokatlardan qutqarish, rivojlanishning barqaror yo‘liga o‘tishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida - «tub joy aholi foydalanadigan an‘anaviy bilimlar va qadriyatlar, resurslardan foydalanish usullari» ekanligi ta‘kidlanmoqda. Mazkur masalalardan xalqning an‘anaviy tabiatdan foydalanish madaniyati o‘ziga xos Farg‘ona vodiysi kabi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni takomillashtirishda foydalanishni taqozo etmoqda.

Jahonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning yo‘nalishlaridan biri sifatida mahalliy aholining tabiatdan foydalanish ya‘ni, etnoekologik madaniyatiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon xalqlarining tabiatdan muvozanatli, tejamkor foydalanishga yo‘naltirilgan ko‘nikma, malaka, odat va ta‘qiqnlarni o‘zida mujassamlashtirgan etnoekologik madaniyatdan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi maskanlarini hududiy tashkil etishda, rekreatsion ob‘ektlar to‘rini takomillashtirishda foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiatdan foydalanish sohasida asrlar davomida shakllangan, davr sinovlaridan o‘tgan, milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan, sharqona shukronalik, ozga qanoat qilish, isrofgarchilikdan, uvoldan qo‘rqish kabi xislatlari bilan uyg‘unlashgan an‘ana, tajriba, ko‘nikma va malakalar etnoekologik madaniyatning asosini tashkil etadi.

Farg‘ona vodiysi hududi tabiiy resurslardan foydalanish madaniyatining taxlili natijasida ajratilgan etnolandshaft mintaqasi hamda 17 ta etnoekologik rayonlar to‘ri yer fondi, qishloq xo‘jaligi yerlari va ekin maydonlari tarkibi loyihalarini ishlab chiqishda amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo‘mitasining 2019 yil 25 maydagi №02-08-4003-son ma‘lumotnomasi). Natijada, vodiydagi yer toifalari, yer turlari va ekin maydonlarining hududiy tarkibini ijtimoiy-geografik nuqtai-nazardan takomillashtirish imkoniyati yaratilgan.

Farg‘ona vodiysi hududida qadimdan ko‘plab urf-odatlar mavjud bo‘lib, ularning ko‘plari atrof-muhitni arsash, tozalikka, poklikka intishish kabilarni aks ettiradi. Ular o‘zlarining manashu urf-odatlarini orqali nafaqat o‘zlarini muhofaza etganlar, balki butun bir tabiatni muhofaza etganlar. Uchgan idishlardan foydalanmaslik, sababi idishning o‘sha uchgan qismida bakteriyalar va mikroblarning to‘planib qolishidir. Ushbu amal Payg‘ambarimi Muhammad (s.a.v) ning 16 nasihatlaridan biri hisoblanadi. Supurgini tikka qilib qo‘ymaslik, sababi bu birinchidan xunuk ko‘rinadi, ikkinchidan esa supurgining uchgi qismining sinib ketmasligini ta‘minlashdir. Bundan tashqari, Marg‘ilonliklarning choyni ozgina quyib berish kabi odatlari mavjud, buni birinchidan

hurmatni aks ettiradi, ikkinchidan esa ozroq quyilgan choy tezroq sovishi va u odam organizmiga kirganda ichaklarni kuydirib qo'ymasligini ifodalaydi.

Qadimdan Farg'ona vodiysi hududidagi aholi asosan dehqonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgani bois, ushbu hududdagi urf-odat va an'analar dehqonchilik ishlari bilan uyg'unlashgan holda shakllanib kelgan. Jumladan, qadimdan odamlar urushayotgan hayvonlarni hosiyatli va hosiyatsizga bo'lishib, ularning qaysi biri yutib chiqishiga qarab yangi yilning "xosiyatli" va "xosiyatsiz" kelishini tahmin qilganlar. Qiz-juvonlar esa qishloq chetidagi bog'larda qadimiy odatlardan bo'lgan arg'imchoq-halinchak uchganlar. Arg'imchoq uchish dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lib, balog'atga yetganlik ramzi hisoblanadi. Namangan viloyatida arg'imchoq arqonlari asosan o'rik daraxti shohlariga bog'lanib, halinchak uchayotganlar iloji boricha balandroq uchib, eng baland shohchadagi o'rik guli yoki g'o'ra(dovuchcha)ni uzib olishga harakat qilganlar. Kimki bunga erishsa uning barcha istaklari ro'yobga chiqadi, deb qaralgan. Qadimdan Navro'z bayrami qishloq joylarda dalaga qo'sh chiqarib, urug'lik don sepish bilan yakunlangan. Ushbu marosimlar ham bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, "shohmoylar", "urug' sepish", "qo'sh oshi" kabilarni qamrab oladi. Mazkur marosimlarning tarixiy ildizlari mil. av. III ming yillik oxiri II ming yillik boshlariga borib taqaladi va qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, haftaning belgilangan kunlarida o'tkazilgan.

Dalaga birinchi qo'sh chiqarilgan kuni Buvoyi Dehqonga atab biror bir hayvon, ko'pincha qo'chqor so'yilgan va marosimiy taom tarzida "qo'sh oshi", "qo'sh go'ja", "xudoyi sho'rva" pishirilgan. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qayrog'ochovul qishlog'idagi qoraqalpoqlar orasida esa yerga urug' qadashdan oldin dala boshida jonliq (odatda xo'roz) so'yiladi. Yil barakali, unumli kelsin degan niyatda bu ishni bo'ydoq o'spiringa bajartirganlar. Eng kekxa usta dehqon fotiha berganidan so'nggina xudodan mo'l-ko'l hosil so'rab, yaxshi niyatlar qilishib ishga kirishilgan. Qurbonlik hayvon go'shtidan palov yoki sho'rva kabi taomlardan biri tayyorlangan. "Qozon to'ldi" kungi "is" yog'iga bo'g'irsoq, o'yma-qatlama pishirilgan yog' bilan ho'kiz shoxlarini, bo'yinlarini hamda bo'yinturuqni moylaganlar. Keksalarning aytishicha, shunday qilinsa ho'kiz muguzlari baquvvat, bo'ynini bo'yinturuq yara qilmaydigan, ho'kizlarning o'zi esa mehnatdan charchamaydigan bo'ladi.

Bundan tashqari, suv resurslaridan samarali foydalanishda yirik magistral kanallar, suv omborlari qurish bilan olib boriladigan texnokratik yo'ldan tashqari, qatra suvni tejashga, oqar suvlar yo'nalishi va rejimini o'zgartirmaslikka, suvdan navbatlashib foydalanishga, qo'shni halqlarni suvga bo'lgan ehtiyojiga hurmat bilan qarashga asoslangan, ming yillar davomida sinovdan o'tgan etnogeografik yo'nalish ham borligini tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Bugungi kunda etnoekologik madaniyat namunalarini hayotga tatbiq etishning vositasi sifatida landshaftli rejalashtirishdan foydalanish tavsiya etiladi. Buning sababi, etnoekologik madaniyat va landshaft-

ekologik rejalashtirish asosida tabiatdan foydalanishning tamoyillarini bir-biriga mos tushishi ta'kidlanmoqda.

Zamonaviy fanda landshaft-ekologik rejalashtirish deganda — xo'jalik faoliyati natijasida tabiatga yetkaziladigan zararni oldini olish yoki kamaytirish bilan birga insonlar faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratish yoki mavjudlarini saqlab qolishga qaratilgan faoliyat turi tushuniladi. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ekologik-landshaftli rejalashtirishni hududiy rejalashtirish tarkibiy qismi bo'lganligi uchun, bu yerda barcha tarmoqlarning manfaatlari to'qnashadi. Ishlab chiqarish tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi va transport) landshaft va uning komponentlari imkoniyatidan maksimal foydalanishga haraqat qiladilar. Biroq, landshaft «manfaati» va imkoniyatini e'tiborga olish ham zarur bo'ladi. Mazkur qarama-qarshiliklarni kelishtirish (kompromiss), muvofiqlashtirish landshaft-ekologik rejalashtirishning asosini tashkil etadi.

Landshaft ekologik rejalashtirish bilan etnoekologik madaniyat asosida tashkil etilgan tabiatdan foydalanishni tabiiy-tarixiy turining tamoyillari deyarli bir hil bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Tabiatdan foydalanishning mazkur turidagi asosiy tamoyil: tabiatdan foydalanuvchi tarmoqlarni landshaft talabiga moslashtirish, unga zarar yetkazmasdan uning imkoniyatlaridan to'la foydalanishdir. Bu tamoyil landshaft-ekologik rejalashtirishda ham qo'llanib xorijiy mamlakatlarda, jumladan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQShda yaratilgan normativ baza asosida hayotga tatbiq etilmoqda. Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun 2000 yil 20 oktabrda Fransiyada qabul qilingan «Yevropa landshaft konvensiyasi» danrejalashtirishini huquqiy asosi sifatida foydalanilib kelinmoqda.

Etnoekologik madaniyat namunalaridan landshaft ekologik rejalashtirish jarayonida qo'llash uchun AQShda ishlab chiqilgan «landshaftli rejalashtirish usuli» ko'proq mos keladi. Bu usul bo'yicha landshaftli rejalashtirish ham 4 ta bosqichda amalga oshirilib, har bir bosqich etnoekologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ma'lumotlar yig'ish, baholash, tasniflash, tavsiyalar berish bosqichlarni o'zida jamlaydi.

Xulosa

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini barqaror-lashtirish, yuzaga kelayotgan mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda mahalliy xalqlarning an'anaviy tabiatdan foydalanish madaniyatini o'rganuvchi etnoekologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va talab kundan kunga ortib bormoqda. Biroq, uzoq yillar mobaynida xukmron bo'lgan sharoitda mafkurasi, «geografik determinizm» da ayblanishdan qo'rqish hissi bu yo'nalishning ilmiy-nazariy asoslarini yetarlicha rivojlantirish imkonini bermadi. Etnoekologik tadqiqotlarning geografik yo'nalishlarini nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud. Etnoekologik tadqiqotlarning ob'ekti sifatida etnoekologik madaniyatning barcha yo'nalish va elementlari emas

balki,geografiyaning 3 ta metodologik talabga javob beradigan, ya'ni hududiy mazmunga ega, kartalashtirish imkoniyati mavjud va uni tadqiq etish geografik qobiq uchun yangi bilimlar beradigan yo'nalishlari tanlab olinadi. Shunga ko'ra, etnoekologik madaniyatni moddiy yo'nalishidan yer-suv resurslaridan foydalanish va aholi maskanlari bunyod etish, ma'naviy yo'nalishlaridan esa, joylarga nom berish, diniy e'tiqodni muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar tashkil etish madaniyati hamda, etnoekologik ta'lim tarbiyaning hududiy jihatlarini o'rganish ajratib olindi. Mahalliy aholi tomonidan qo'llanib kelingan tabiatdan foydalanish madaniyatining keskin o'zgartirilishi barcha tarixiy davrlarda salbiy ekologik oqibatlarini keltirib chiqarganligi tarixiy ekskurs yordamida aniqlandi. Ayniqsa, quruq iqlimli hududlarda mahalliy etnoslarning yer-suvdan foydalanish madaniyatini mensimaslik, e'tiborga olmaslik, antik davrlarda ham, (Bobil fojiasi) bizning davrimizda ham, (Orol muammosi) salbiy ekologik oqibatlariga olib kelishi mumkinligi tadqiqotlar natijasida ko'rsatib berildi.

Bugungi kunda etnoekologik madaniyat tamoyillari ni hayotga tadbiiq etishning vositasi sifatida landshaftli rejalashtirishdan foydalanish mumkinligi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSh misolida o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xanmagomedov X.L., Maxacheva S.Z., Gebekova A.N. Ekologicheskaya toponimika Severnogo Kavkaza // Tez.dokl. konf. po itogam geogr. issledovaniy v Dagestane. Выр. 24. Maxachkala: Izd-vo geogr. o-va Dagestana, 1993.
- 2.Xanmagomedov X.L., Mujaidova D.Sh. Toponimiya, mineralno-sыrevыe resursы i etnoekologiya // Gosudarstvennoye regulirovaniye ekonomiki v usloviyax rынка. Ch. 1. 2000.
- 3.Xolikov R.I. Izmeneniye landshaftov Ferganskoy doliny pod vliyaniyem khozyaystvennoy deyatelnosti cheloveka.Dis. kand.geogr.nauk.-L.: LGU, 1989.
- 4.Xomidova G.M., Murodov M.Z. Ekologik ahloq. Farg'ona.: "Farg'ona nashryoti", 2008 y.
- 5.Халматова, Ш., & Махсудова, Г. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 356-362.
6. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1365>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
7. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY. In *Конференции*.

8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.
9. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1093-1098.
10. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 84-87.
11. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 159-165.
12. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA.
13. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.
14. Maxammadjonovna, M. G. (2022). ICHIMLIK SUVINING SANITAR HOLATI YAXSHILASH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 367-371.
15. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.
16. Xalmatova, S. M., & Maxsudova, G. (2022). SHAXS MA'NAVIY ONGINI SHAKLLASHTIRISHDA OILANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 677-680.
17. Махсудов, Ш. С. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШРИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 993-995